

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish  
agentligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni  
ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik  
HISOBOT**

**I. Umumiy ma'lumot**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga korrupsiya faktlariga doir 12 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ulardan 2 tasi Toshkent viloyati, 5 ta Qashqadaryo viloyati hamda 1 tadan Andijon, Jizzax, Sirdaryo, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Shundan 1 tasi ishonch telefoni, 4 tasi virtual qabulxona, 1 tasi elektron pochta va 6 tasi pochta aloqasi orqali kelib tushgan.

**II. Ko'rib chiqish natijalari**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojatlardan 8 tasi o'z tasdig'ini topmagan va 4 tasi yuzasidan aniqlangan holatlar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

**III. Minimallashtirish choralari**

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha 2022-yil davomida Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Korrupsiyaga qarshi kurashish vakolarli organlar ishtirokida bir nechta seminar-treninglar tashkil etildi, joriy yilning noyabr oyi korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi deb e'lon qilinib targ'ibot tashviqot ishlari amalga oshirildi, Agentlikning 2022-yil 28-martdagi 82-son buyrug'i orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlandi. Shuningdek, Agentlikda korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan departament va bo'limlarda xavf xatarni kamaytirish bo'yicha xizmatlarda inson omilini kamaytirish va raqamlashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

**Ichki nazorat va komplaens  
xizmati bo'limi boshlig'i**

 **H. Baxtiyorov**